ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA METODIK ASOSLARI

PEDAGOGICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF FORMING SPEECH CULTURE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Ernazarova Laylo Abdusaitovna
SamDPI Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Namozova Sevinch Sobir qizi
SamDPI Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.20171523

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Maqolada Alisher Navoiy o‘gitlari, A.G. Muhiddinov va boshqa metodist olimlarning qarashlari asosida nutqiy vaziyat yaratish, adabiy til me’yorlarini o‘rgatish hamda lug‘at boyligini oshirish usullari yoritilgan. Shuningdek, "Tarjimon" va "Aqliy hujum" kabi interfaol metodlarning samaradorligi ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: nutq madaniyati, boshlang‘ich ta’lim, adabiy til, nutqiy vaziyat, lug‘at boyligi, o‘gitlar, interfaol metodlar, 4K modeli.

Аннотация

В данной статье анализируются вопросы формирования культуры речи учащихся начальных классов. На основе учений Алишера Навои, взглядов А.Г. Мухиддинова и других ученых-методистов освещены методы создания речевых ситуаций, обучения нормам литературного языка и обогащения словарного запаса. Также научно обоснована эффективность таких интерактивных методов, как «Переводчик» и «Мозговой штурм».

Kalit so‘zlar: nutq madaniyati, boshlang‘ich ta’lim, adabiy til, nutqiy vaziyat, lug‘at boyligi, Alisher Navoiy, interfaol metodlar, 4K modeli.

Abstract

This article analyzes the issues of forming the speech culture of primary school students. Based on the teachings of Alisher Navoi, the views of A.G. Muhiddinov, and other methodologist scientists, methods of creating speech situations, teaching literary language norms, and increasing vocabulary are highlighted. Also, the effectiveness of interactive methods such as "Translator" and "Brainstorming" is scientifically justified.

Keywords: speech culture, primary education, literary language, speech situation, vocabulary, Alisher Navoi, interactive methods, 4K model.

Insonning ma’naviy olami uning nutqida, so‘zlashish odobida va til imkoniyatlaridan qanchalik mahorat bilan foydalana olishida namoyon bo‘ladi. Nutq madaniyati — bu shunchaki muloqot vositasi emas, balki shaxsning tafakkur darajasi va madaniy qiyofasini belgilovchi oliy mezondir. Ayniqsa, shaxs kamolotining tamal toshi qo‘yiladigan boshlang‘ich sinf davrida o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini to‘g‘ri shakllantirish, ularni ona tilining bitmas-tuganmas jozibasidan bahramand etish pedagogika fanining eng muqaddas vazifalaridan biri sanaladi. Buyuk mutafakkir bobomiz, so‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek-„Ko'ngil maxzanining qulfi tildir,Ul qulfning kalitini so'z bilg'il”. Ya'ni, insonning qalbi bir xazina bo'lsa, til o'sha xazinaning qulfidir, uning kaliti esa so'zdir. Kalit qanday bo'lsa, xazinaning ichi ham shunday ochiladi.Demak, shunday ekan, har birimizning nutqiy so‘z

sandig‘imizdagi tillolarimiz ko‘p bo‘lishi kerak. Ayniqsa, yosh avlodni kamolotga yetkazishda asosiy tamal toshini qo‘yib beradigan biz — pedagoglar bu borada mas’uliyatliroq bo‘lishimiz lozim. Xo‘sh, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirishimiz uchun qanday ishlarni amalga oshirishimiz kerak va nimalarga alohida e’tibor qaratishimiz lozim? Nutq madaniyati shakllanishining negizida o‘quvchining nutqiy faoliyati yotadi. A.G.Muhiddinov o‘zining ilmiy izlanishlarida nutqni shunchaki til birliklari yig‘indisi emas, balki murakkab ruhiy jarayon sifatida talqin etadi. Olimning fikricha, o‘quvchi dars jarayonida faqat tinglovchi emas, balki faol nutqiy subyektga aylanishi shart. Nutqiy faoliyatning muvaffaqiyati o‘quvchining ichki nutqida shakllangan g‘oyani tashqi nutqqa qanchalik mantiqiy va ravon o‘tkaza olishi bilan belgilanadi. Bu esa o‘qituvchidan darsda "nutqiy vaziyat" yaratishni, ya’ni bolani gapirishga majbur qiluvchi emas, balki gapirishga undovchi muhitni shakllantirishni talab etadi. Bunda, albatta, biz dars davomida ‘Aqliy hujum’ metodidan foydalanishimiz mumkin. Mavzu yuzasidan o‘quvchilarga savol tashlanadi va ulardan har qanday fikr (to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligidan qat’i nazar) qabul qilinadi. Ushbu metod o‘quvchilarda qo‘rquvni yengish hamda erkin nutqni shakllantirishga yordam beradi. Bolaning nutqi, taxminan, 5 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan davrda asosiy grammatik qoidalar va tovushlar talaffuzi jihatidan to‘liq shakllanadi. Biroq lug‘at boyligi va murakkab fikrlash qobiliyati 12 yoshgacha hamda undan keyin ham rivojlanishda davom etadi. Nutqi rivojlanayotgan bolaning fikri noto‘g‘ri bo‘lsa, uni tanqid ostiga olib, rad etish yoki xatosini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuziga aytish noto‘g‘ri sanaladi. Bu holat o‘quvchining o‘z fikrini bildirishga bo‘lgan xohishini so‘ndirishi, erkin gapira olmaslik, yana rad javobini olishdan qo‘rqish va o‘ziga nisbatan ishonchsizlik hissi paydo bo‘lishiga olib keladi.Shu bilan birga, maktabgacha bo‘lgan davr ham bolaning nutqiy o‘sishida muhim ahamiyatga ega. Bola dunyoga hamisha qiziqish va jumboqlar ko‘zi bilan qaraydi, shu sababli uning savollari ko‘p hamda ba’zan murakkab bo‘lishi tabiiy. Mazkur davrda ota-onalarning bolaga be’tibor bo‘lishi, uning fikrini hurmat qilmasligi yoki doim ‘jim bo‘lish’ni uqtirishi ham nutq rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday vaqtda pedagog nima qilish kerak? Bunga yechim sifatida, eng avvalo, Alisher Navoiy ‘Mahbub ul-qulub’ asarida aytganidek, shirin so‘z ko‘ngil kaliti ekanini anglashimiz lozim. Navoiy o‘gitiga ko‘ra, o‘qituvchi bolaga nisbatan qattiqqo‘llikni emas, balki muloyimlik va yumshoqlikni (rifq) qo‘llashi kerak. Bola o‘qituvchining mehrini his qilsagina, o‘z ‘sandiq’idagi so‘zlarni ochishni boshlaydi.Bolani hamma oldida gapirishga majburlash uning qo‘rquvini yanada oshiradi. Dastlab u bilan yakkama-yakka, pichirlab bo‘lsa-da muloqot qilish, uning javoblarini (hatto imo-ishora bo‘lsa ham) tabassum bilan qabul qilish lozim. Olim A.G. Muhiddinov ta’kidlaganidek, bola eng kichik so‘zni aytsa ham, uni rag‘batlantirish kerak. Bu bolada ‘gapirish xavfsiz va yoqimli’ degan ishonchni uyg‘otadi. Nutq madaniyatining poydevori adabiy til me'yorlariga (fonetik, leksik va grammatik) rioya qilishdan boshlanadi. K.Qosimova va X.G'ulomova kabi metodist olimlar ta'kidlaganidek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida adabiy til me'yorlarini shakllantirishda "namuna asosida o'rganish" yetakchi o'rin tutadi. Bunda o'qituvchi nutqi bilan birga, mumtoz adabiyot namunalari va xalq og'zaki ijodi (maqollar, matallar) katta ahamiyatga ega.Bu bilan aytmoqchimizki, o‘qituvchi o‘quvchilar uchun oynadir. Bilamizki, oyna qanday bo‘lsa, undagi aks ham aynan shunday bo‘ladi. O‘qituvchi har qanday vaziyatda — o‘zini tutish madaniyatidan tortib, nutqigacha o‘quvchilar uchun namuna deb qaraladi. Ta’lim beruvchi pedagog shevaga oid so‘zlardan uzoqlashgan holda, doimo adabiy til me’yorlariga rioya qilib, o‘quvchilar bilan muloqot o‘rnatishi shart.Shu bilan birga, ba’zi o‘quvchilar oila muhitida shevada gapirishga odatlangan bo‘ladilar. Ularni bir-biridan ajratish va adabiy tilga o‘rgatish uchun ‘Tarjimon’ metodidan foydalanish, nazarimda, ancha samaralidir. Bunda o‘qituvchi doskaga yoki tarqatma qog‘ozlarga shevada qo‘llaniladigan so‘zlarni yozadi (masalan: ‘moshina’, ‘nima qivotti’, ‘ketti’). O‘quvchilar esa ularning adabiy tildagi muqobillarini topishlari lozim (mashina, nima qilyapti, ketdi). Bu usul bolaning nutqini adabiylashtirish sari tashlangan muhim qadamlardan biri bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchilar nutqining yanada jozibali bo‘lishi hamda kam so‘z bilan ko‘p ma’no anglatishiga xizmat qiluvchi maqollarni yodlatish ham katta ahamiyatga ega. Maqollar — xalq donishmandligining eng qisqa va lo‘nda ifodasidir. Ular nutq madaniyatini shakllantirishda beqiyos qurol hisoblanadi. Maqol va matallar, ko‘pincha, qofiyadosh va mantiqan tugal bo‘lgani uchun bolaning xotirasida oson muhrlanadi. Ular bolaga o‘z fikrini isbotlash uchun kuchli dalil sifatida xizmat qiladi. Masalan, eng ommabop bo‘lgan ‘Avval o‘yla, keyin so‘yla’, ‘Tilga ixtiyorsiz — elga e’tiborsiz’ kabi maqollar o‘quvchida so‘zlashish odobi va nutqiy mas’uliyatni shakllantiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun

so‘zning ma’nosini shunchaki anglashdan ko‘ra, o‘sha so‘zni matn ichida qo‘llash ko‘nikmasini egallash muhimroqdir. Binobarin, A.Q. Nisanbayeva o‘zining metodik qarashlarida matnni nutq o‘stirishning oliy birligi sifatida baholaydi. Matn vositasida o‘quvchi so‘zlarning nafaqat lug‘aviy ma’nosini, balki ularning uslubiy bo‘yoqlarini, sinonimik imkoniyatlarini va mantiqiy bog‘lanishlarini ham o‘rganadi. Matn ustida ishlash jarayonida o‘quvchining ‘ijodiy qayta hikoyalashi’ uning lug‘at boyligini faollashtiradi hamda nutqidagi passiv so‘zlarni aktiv qatlamga o‘tkazishga yordam beradi. Misol uchun, o‘quvchi matn yordamida ‘shirin’ so‘zi mazmunga qarab goh taomga, goh nutqqa nisbatan ishlatilishini anglab yetadi. Ma’lumki, bolalar juda ko‘p so‘zni tushunsalar-da (passiv lug‘at), gapirganda ulardan har doim ham foydalana olmaydilar. Matnni qayta hikoyalash jarayonida o‘qituvchi o‘sha so‘zlarni ishlatishni talab qilsa, so‘zlar bolaning kundalik nutqiga (aktiv qatlamga) o‘tadi. Bunda ‘O‘qish savodxonligi’ darslari asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi; o‘quvchi matnlarni o‘rganish, tahlil qilish orqali yangi so‘zlarni o‘zlashtiradi. Eslatib o‘tish joizki, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi dars davomida 4 tadan 6 tagacha yangi so‘zni yoki ularning ma’nolarini o‘rganishi me’yor hisoblanadi. Nutq madaniyati faqat to g'ri gapirish emas, balki ta'sirchan gapirish hamdir. A.G'ulomov nutqning ifodaliligi masalasiga to' xtalar ekan, uning darslarda intonatsiya, urg'u va mantiqiy to' xtamlar (pauza) orqali shakllantirilishini asoslab beradi. Bugungi kunda bu jarayonni boyitish uchun 4K modeli (kommunikatsiya, kollaboratsiya, kreativlik va kritik fikrlash) hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanilmoqda.O'qurchilarning guruhlarda ishlashi (kollaboratsiya) ularda muloqot madaniyatini, bir-birini tinglash va fikrga munosabat bildirish konikmalarini tabiy ravishda shakllantiradi. Xulosa qilib aytganda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirish jarayoni nafaqat til qoidalarini o‘rgatish, balki shaxsning mantiqiy tafakkurini yuksaltirish va uni ijtimoiy muloqotga tayyorlashni ko‘zda tutadi. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bu jarayonda "namuna asosida o‘rganish" tamoyili yetakchi o‘rin tutadi. O‘qituvchi o‘quvchilar uchun jonli namuna (oyna) bo‘lib, uning adabiy til me’yorlariga asoslangan nutqi va Alisher Navoiy o‘gitlaridagi kabi "shirin so‘z" bilan yo‘g‘rilgan muomalasi boladagi nutqiy to‘siqlarni bartaraf etishning bosh omilidir. Metodik jihatdan, A.Q. Nisanbayeva ta’kidlaganidek, matn nutq o‘stirishning oliy birligi hisoblanadi. Matn ustida ishlash jarayonida o‘quvchi so‘zlarning uslubiy bo‘yoqlarini anglaydi, "ijodiy qayta hikoyalash" orqali esa o‘zining passiv lug‘at boyligini aktiv qatlamga o‘tkazadi. Shu bilan birga, xalq og‘zaki ijodi namunalari — maqol va matallar bolani aniq gapirishga, so‘z mas’uliyatini his qilishga o‘rgatadi. Darslarda "Tarjimon" kabi interfaol metodlarni qo‘llash hamda yangi so‘zlarni o‘zlashtirishdagi pedagogik me’yorlarga (4–6 ta so‘z) amal qilish nutqiy rivojlanishning samaradorligini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, tizimli yondashuv va milliy qadriyatlar uyg‘unligi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq xazinasini boyitishda muvaffaqiyat garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon. Toshkent: “Fan”, 1989.
2. Yoqubov, H. Bolalar adabiyoti sifatini ko‘taraylik. Toshkent, 1936.
3. To‘xliyev, B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. N.: 2010, – B. 474.
4. “Bolalar adabiyoti” darsligi. Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.
5. Ahmedov, S., Qosimov, B., Qo‘chqorov, R., Ro‘ziyev, Sh. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinflari uchun darslik. Toshkent: “Sharq”, 2020. – 272 b.
6. Rahimov, X. Asalari qirolichasi. Ertaklar (Olmon tilidan tarjima). Toshkent: Cho‘lpon, 2000. – 168 b.
7. Islomov, M. Bolalar adabiyoti va tarbiya: Nazariya va amaliyot. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Nashriyoti, 2018.
8. Karimova, S. Adabiy ertaklar va ijtimoiy tarbiya. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti Nashriyoti, 2020.
9. Rahimov, T. Pedagogik metodlar va bolalar adabiyoti. Toshkent: Pedagogika Nashriyoti, 2019.